

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.Jo'rayeva	
Firoqiy va Partav	314
Z.Teshabojeva	
Abduqayum yo'ldoshning obraz yaratish mahorati	318
N.J.Abdusamatova	
Katta va tayyorlov guruh bolalari nutqini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini ta'minlash	322
Sh.A.Ermatova	
Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'qitishda "Blum taksonomiyasi" dan foydalanish	326
M.J.Jurabojeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qo'shiqlarni tinglash va tahlil etishga o'rgatishning o'ziga xosligi	331
Sh.M.Usanov	
O'zbekistonda millatlararo hamjihatlik va totuvlikning ta'minlanishida milliy madaniy markazlarning o'rni.....	334
V.A.Giyosova	
Glyuttonimlar bilan ifodalangan bolalarga oid murojaat birliklari	339
Г.Р.Абдуллаев	
Социокультурные и этнические особенности в развитии молодёжи в узбекских семьях под влиянием опыта пожилых.....	342
J.Sh.Amayusupov	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish bosqichlari.....	345
M.T.Voxidova	
Abu Nasr Forobiy asarlarida insonparvarlik masalalari	350
N.M.Xodjibolajeva	
Jadid mutafakkirlarining qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari	354
Sh.M.Muxamedov	
Materialshunoslik fanining elektron-dasturiy va metodik ta'minotini takomillashtirish.....	358
S.I.Raxmatullajeva	
Farg'ona viloyati axborot kutubxona markazi faoliyati tarixi	371
M.A.Junaydullajev	
Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi tarixiy shart-sharoitlari	377
M.M.Temirova	
Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalari va funksiyalari	382
M.U.Kurbanov	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagogik jamoasini maqsadli boshqarishda ergonomik yondashuv	387
M.O.Batirkhanova	
Badiiy asarlardagi somatik frazeologik birliklar tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari	391
M.C.Ganieva	
Особенности социально-философских взглядов по развитию женского предпринимательства.....	395
I.A.Ismoilov	
Jazo tushunchasi va uning mazmun-mohiyati xususida	401
D.G'.Zaylobidinova	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning metodik tizmi	405
D.A.Abduraxmonov	
Bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga doir	408
M.M.Yunusov	
Universitetlarda "Kimyoviy texnologiya" fanini fanlararo bog'lanish asosida o'qitishning pedagogik-psixologik jihatlari	416
G'.M.Alamov	
Sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda xalq o'yinlarining o'rni.....	420

**BO‘LAJAK XORIJIY TIL O‘QITUVCHILARINING KASBIY O‘ZINI-O‘ZI
RIVOJLANTIRISHNING METODIK TIZMI****МЕТОДИЧЕСКАЯ СИСТЕМА ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО САМОРАЗВИТИЯ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА****METHODOLOGICAL SYSTEM OF PROFESSIONAL SELF-DEVELOPMENT OF
FUTURE FOREIGN LANGUAGE TEACHERS****Zaylobidinova Dilnoza G‘ulomovna¹**¹Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktaranti**Annotatsiya**

Mazkur maqola bo‘lajak xorijiy til o‘qituvchilarining kasbiy o‘zini-o‘zi rivojlantirish, bitiruvchi mutaxassislar uchun hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda joxon talablariga mos ravishda chet tilini mukammal bilish mamlakatimizning uzluksiz ta‘lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta‘lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi.

Аннотация

В данной статье речь идет о профессиональном саморазвитии будущих учителей иностранного языка, реформировании и совершенствовании системы непрерывного образования нашей страны, совершенствовании системы непрерывного образования нашей страны, совершенном знании иностранного языка в соответствии с Требованиями мира в нынешний бурно развивающийся период: уровень образования, внедрение передовых педагогических и информационных технологий, повышение эффективности образования подняты на уровень государственной политики.

Abstract

This article is about the professional self-development of future foreign language teachers, the reform and improvement of our country's continuous education system, the reform and improvement of the continuous education system of our country, and the perfect knowledge of a foreign language in accordance with the requirements of the world in the current rapidly developing period. level of education, introduction of advanced pedagogical and information technologies and improvement of educational efficiency have been raised to the level of state policy.

Kalit so‘zlar: kasbiy-pedagogik, o‘zini-o‘zi, innovatsiya, mustaqil, rivojlanish, metodlar, global, kompetensiya, texnologiya, psixologik jihatlar, axborot.

Ключевые слова: профессионально-педагогический, самостоятельный, инновационный, самостоятельный, развитие, методы, глобальный, компетентность, технология, психологические аспекты, информация.

Key words: professional-pedagogical, self, innovation, independent, development, methods, global, competence, technology, psychological aspects, information.

KIRISH

Bugungi kunda har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta‘lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Mustaqil taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta‘lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta‘lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi va ularning o‘quv-tarbiya jarayoniga kirib kelishi, shuningdek, axborot texnologiyalarining tez almashinuvi va takomillashuvi jarayonida har bir inson o‘z kasbiy tayyorgarligini, mahoratini kuchaytirish imkoniyatlari yaratildi. Ta‘lim jarayoniga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni olib kirish «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning bosqich vazifalaridan biridir. Bugungi kunda ta‘limda, xususan, chet tillarni o‘rgatishda innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullardan keng foydalanilmoqda. Xorijiy til ta‘limiga innovatsion pedagogik texnologiyalarning tadbiri-shaxsni jamiyatning talabiga ko‘ra yo‘naltirish, ta‘limni shu talablar asosida tashkil etish ta‘lim tamoyillari, metodlari aloqadorligi asosida shaxsni har tomonlama yetuk kadr qilib shakllantirish, uning qobiliyati va imkoniyatlarini to‘liq namoyon etishi va rivojlantirishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Pedagogik innovatsion texnologiyalarning yana bir o‘ziga xos xususiyati o‘quvchi faoliyatining ustuvorligida, ta‘lim jarayonida talaba yoki o‘quvchining asosiy figura ekanligidadir. Ta‘lim jarayonida bilish, leksik, grammatik, talaffuz

tushunchalarni to'g'ri shakllantirish, o'quvchi ongida bilimlar sistemasini, o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmasini to'g'ri tarkib toptirish innovatsion pedagogik texnologiyalarning tarkibiy qismidir. Hozirgi kunda ta'lim jarayonidagi eng samarali, o'qituvchi pedagoglar ko'zlagan maqsadlarga erishishning kafolatlangan o'qitish uslublari, o'quvchi talabalarda mustaqil fikrlash, erkin qaror chiqarish ko'nikmasini shakllantiradigan, ularni muammolarini yechishlari, turli vaziyatlardan qiynalmasdan chiqib ketishlari uchun zamin hozirlashga qodir bunday o'qitish uslublari pedagogik texnologiyaning eng ilg'or xususiyatidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xorijiy olimlardan E.N.Solovova, Thong Le Dinh, N.F.Koryakovtseva, X.Noliklar bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy malakasini rivojlantirishda olib borgan ilmiy-tadqiqot ishlari har doim mamlakatimiz olimlari va metodistlarining diqqat markazida edi. O'qituvchining uslubiy mahorati turlari loyihalash, adaptiv, tashkiliy, kommunikativ, va chet tili o'qituvchisining oltita shaxsiy xususiyatlari (umumiy fazilatlar, psixologik zukkolik, amaliy psixologik aql, psixologik takt, boshqalarga nisbatan talabchanlik (tanqidiylik), uslubiy qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlari keng muhokama qilingan. Bular kasbiy mahorat darajalarini (uslubiy savodxonlik darajasi, uslubiy mahorat darajasi) ko'rsatib beradi. Xorijiy til fakultet bitiruvchi mutaxassislari uchun hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda joxon talablariga mos ravishda chet tilini mukammal bilish eng muhim talab hisoblanadi. Shu sababli chet tili kompetensiyasini shakllantirib o'rgatish asosiy tamoyillaridan biridir. Ushbu maqsadga muvaffaqiyatli erishish uchun talabalarni chet tilida muloqot qilish jarayonida o'zaro tushunishga, erkin muloqot qilishga, muammolarni oson yechimini topishga, ijtimoiy va kasbiy jihatdan moslashtirishga, ularni ijtimoiy-madaniy sohada muloqot qilishga o'rganish vazifalarini pedagogik jarayonda muayyan bir tizim keltirish zarurligi e'tiborga olindi. Ijtimoiy-madaniy sohada og'zaki muloqotni o'rgatish va rivojlantirish, chet tili darsida nutq holatini yaratish, zamonaviy metodlardan foydalanish juda muhimdir. Muloqotni o'rgatish jarayonida ularni nutq kommunikativ kompetensiyasiga e'tibor qaratilib, bu holat ko'p jihatdan talabalarni nutq faoliyatini baholaydi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Muloqotni rivojlantirishda ko'p amaliyot talab qilib, o'qituvchi va o'quvchi ta'lim jarayonida tabiiy holatlarni yaratishi sababli nafaqat o'ziga xos lingvistik xususiyatlarini foydalanishga imkon beradi. Ma'lumki, muloqotning bir necha turlari mavjud bo'lib, shunga muvofiq metodistlar ikki turga ajratadilar, bulardan biri imitative (taqlid qilish) bu ularni erkin muloqot qilishiga va to'g'ri talaffuz qilishni o'rgatadi. Simulativ (tasavvur) ikkala metod talabalarni kommunikativ kompetensiyasini oshirib, kinodan muloqotini taqlid qilish, (audio, radio, BBC, ted talk va boshqalar) tinglash orqali kommunikativ qobiliyatni oshiradi. Bunday faoliyatlar lingvistik va stilistik xususiyatlarni ko'p mashqlar va amaliyotlar bilan dialoglarni analogiya bo'yicha o'zgartirish va kompilyatsiya qilib, muloqotni rivojlantiradi. Simulativ esa ishni o'rganish, muammolarni hal qilish, qaror qabul qilish, rejani muhokama qilish, bahs-munozaralarni hal qilish bilan ifodalanadi. Haqiqiy holatlarga o'xshash jarayonlar yaratiladi va stajyorlar turli rullarni (sotuvchixaridor, shifokor- bemor, mijoz qabul qiluvchi) yoki boshqa harakatlarni bajarishi mumkin. Muloqot faoliyati tasvirlangan sahnaga qiziqish, rulni yaxshi o'ynash istagi ularga katta motivatsiya berishi mumkin. Simulative aloqa usullari sifatini takidlash kerak; dramatisatsiya, o'qituvchi tomonidan mavzu va syujet belgilanadi, talabalarning o'zi tomonidan esa qahramonlar, ularning ijtimoiy mavqei, rullni hattoki harakatini ko'rsatilgan muammoli vaziyatlar uchun sahna ko'rinishlarini tayyorlaydi. Ushbu texnikadan foydalanish nutqni erkinligi va spontanlik va personajlarning og'zaki harakatlari bilam-tajribalari turadi. Demak yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni shuni aytishimiz mumkinki, metoddan foydalanish bo'lajak chet tili o'qituvchilari uchun tilni o'rganishda chet tili kompetensiyasini shakllantirish orqali nutqiy qobiliyatni rivojlantiradi. Ayni paytida, chet tili o'qituvchilaridan ham, boshqa kasb mutaxassislaridan ham yangi davr talabi bo'lgan kasbiy harakatchanlikni, o'z ishini qisqa muddatda malakali bajarish qobiliyatini, ma'suliyatli, faol, malakali mutaxassisni, mehnat bozorida raqobat bardosh bo'lishini taqozo etadi. Bundan tashqari, so'ngi yillarda chet tilini o'qitish metodikasida katta o'zgarishlar vujudga keldi. Oldingi va hozirgi zamonn taqqoslasek, ilgarigi o'qituvchilar jamiyat tomonidan chet tillarini o'rganishga rag'batlantirilmaslighi, eng yangi ilmiy va uslubiy adabiyotlarning yetishmasligi, o'rganilayotgan til mamlakat va aloqalari to'g'risidagi ma'lumotlarni yetishmasligidan qiynalgan bo'lsalar, hozirgi kelib ko'p o'zgarishlar, qulayliklar

yetarlicha bo'lib, chet tili bo'yicha turli qo'llanmalar, adabiyotlar, yangi materiallardan foydalanish imkoniga ega. Shunga qaramay o'qituvchilarning chet tilini o'rganish bo'yicha uslubiy adabiyotlar o'qimasligi, o'zini ustida ishlamasligi oqibatida qiyin vaziyatni yuzaga keltiradi. Bu turdagi o'qituvchilar orasida malakali avtonomiyaning yetarli darajada rivojlanmaganidan dalolat beradi. Olimlarning takidlashicha kasbiy avtonomiyaga yondashuvda sharoitimiz qanday bo'lishidan qat'iy nazar kasbiy sohada fikrlash va harakat qilish qobiliyati, mas'uliyatli, qaror qabil qilish, maqsadlarni to'g'ri yo'naltirish va ularni amalga oshirish uchun strategiyalarni ishlab chiqish. Bo'lajak chet tili o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligida mustaqilligini rivojlantirish bo'yicha yangi ishlarni, universitetlarda doimi o'zgaruvchan sharoitlarda tayyorgarlikni joriy etish kerak. O'quv dasturlari, darsliklar va ta'lim muassasalarining takomillashtirishda o'qituvchilarning kasbiy pedagogik yangiliklariga, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining zamonaviy o'zgarishlariga tez moslashishni talab etadi. Bo'lajak xorijiy til o'qituvchisi uchun kasbiy avtonomiyaning asosi uslubiy kompetensiya quydagi ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari xorijiy til o'qituvchisi uslubiy kompetensiyasining yana bir ahamiyatli tomoni shundaki bo'lajak xorijiy til o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatidagi darajasini va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda yetarlicha bilim va tajribalarini oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi deb hisoblaydi. Tilni o'rganish masalalari bilan shug'ullangan nemis olimi A. Bolen mazkur tilni o'qitish jarayonida ko'zlangan maqsadlarga ilmiy jihatdan erishish mumkinligini asoslar ekan, xorijiy tilni o'zlashtirishda amaliy yondashish, til orqali xalq ruhiyatini tushunish, madaniyatini o'rganish va o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini rivojlantirish maqsadlari ilgari surilmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib shuni takidlash mumkinki bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarning kasbiy malakasini rivojlantirishda o'qituvchining uslubiy mahorati turlari loyihalash, adaptiv, tashkiliy, kommunikativ, va xorijiy til o'qituvchisining oltita shaxsiy xususiyatlari (umumiy fazilatlar, psixologik zukkolik, amaliy psixologik aql, psixologik takt, boshqalarga nisbatan talabchanlik (tanqidiylik), uslubiy qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlari keng muhokama qilindi.

ADABIYOTLAR RO'XATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni [PF-5847 08.10.2019](#). Manba: [www.gov.uz](#)
2. Гальскова, Н.Д. Современная методика обучения иностранным языкам / Н.Д. Гальскова // М. : АРКТИ, 2000.
2. Рахманов, И.В. Проблема рецептивного и репродуктивного овладения иностранным языком в школе / И.В. Рахманов // М. : высшая школа, 1954.
3. Скалкин, В.А. Основы обучения устной иноязычной речи / В.А. Скалкин // М. : Просвещение, 1981.
3. Dilshodovich, I. S. (2023, October). PRINCIPLES OF THE FORMATION OF COMPETENCY FOR PREPARING STUDENTS FOR FAMILY LIFE. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 2, No. 17, pp. 29-32).
4. Dilshodovich, I. S. (2023). DIDACTIC POSSIBILITIES OF FORMATION OF FAMILIAR COMPETENCE IN ADOLESCENT BOYS. *European journal of education and applied psychology*, (1), 3-6.
5. Baydjanov, B. K. (2021). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF INFORMATION COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS. *Theoretical & Applied Science*, (7), 171-178.
6. Baydjanov, B. K. (2022). Methodology of Pedagogical Science and its Axiological Possibilities. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 352-363.
7. Baydjanov, B. (2021, June). HIGHER EDUCATION PROSPECTS AND ISSUES OF DEVELOPING INFORMATION SECURITY CULTURE AMONG STUDENTS (ON THE EXAMPLE OF FERGANA REGION). In *Конференции*.
8. Khodjaev, B., & Baydjanov, B. (2022). PEDAGOGICAL BASIS AND PROBLEMS OF PROTECTING STUDENTS FROM THE THREAT OF HARMFUL INFORMATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Scientific journal of the Fergana State University*, (1), 55-55.
9. Tuychieva, I. (2015). The concept of pedagogical innovation in modern education. *The Advanced Science Journal*, 87-90.
10. Ibragimovna, T. I. (2021). LEGAL AND REGULATORY FUNDAMENTALS OF REFORM OF PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN.
11. Tuychiyeva, I. I. (2017). Question of Using Linguo-cultural Material for Learning Native Tongue in Professional Colleges. *Eastern European Scientific Journal*, (4), 84-88.
12. Ibragimovna, T. I. (2023). Preparing Future Educators for the Formation of Life Skills in Students. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(3), 170-173.